



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





NASRI UZZOL ASARI TAHLILI

FarDu Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi magistranti

Mahmudova Durdona

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mumtoz maqom san'atining muhim sho'balaridan biri bo'lgan "Nasri Uzzol" asarining musiqiy va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda kuy tuzilishi, lad tizimi hamda ijrochilik an'analari yoritiladi. Asarning emotsional ta'siri va uning mumtoz musiqa tizimidagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ijrochilik mahoratini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nasri Uzzol, maqom san'ati, mumtoz musiqa, ijrochilik, lad tizimi, musiqiy tahlil, an'ana

АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «НАСРИ УЗЗОЛ»

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется одно из важных произведений классического макома — «Насри Уззол». Рассматриваются музыкальная структура, ладовая система и исполнительские традиции. Особое внимание уделяется эмоциональному воздействию произведения и его месту в системе классической музыки. Исследование способствует более глубокому пониманию исполнительского мастерства.

Ключевые слова: Насри Уззол, маком, классическая музыка, исполнительство, ладовая система, музыкальный анализ, традиция

ANALYSIS OF THE MUSICAL WORK "NASRI UZZOL"

ANNOTATION

This article analyzes one of the important sections of classical maqom art — "Nasri Uzzol". It examines its musical structure, modal system, and performance traditions. Special attention is given to its emotional impact and its role in the classical music system. The study helps to better understand performance mastery.

Keywords: Nasri Uzzol, maqom art, classical music, performance, modal system, musical analysis, tradition

KIRISH

O'zbek mumtoz musiqa san'ati asrlar davomida shakllanib, murakkab ijrochilik an'analari, boy nazariy tizimi va yuksak estetik mezonlari bilan Sharq musiqiy madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, maqom ijrochiligi tizimi nafaqat musiqiy ifoda, balki chuqur falsafiy, poetik va ma'naviy mazmunni o'zida mujassam etgan murakkab badiiy jarayon sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimda ijrochining texnik mahorati, ovoz imkoniyatlari, nafas boshqaruvi, intonatsion aniqlik hamda badiiy ifoda vositalarini to'g'ri qo'llashi muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda musiqa ta'limi jarayonida ijrochilik mahoratini oshirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ijro amaliyotida an'anaviy "ustoz-shogird" tizimi bilan bir qatorda innovatsion pedagogik yondashuvlar, texnik mashqlar majmuasi, interfaol usullar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish ijrochining professional darajasini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Maqom ijrochiligi





misolida, xususan “Nasri Uzzol” kabi murakkab ashula yo‘llarini o‘rganish jarayoni ijrochidan nafaqat nazariy bilim, balki yuqori darajadagi texnik tayyorgarlikni ham talab etadi. Asarning daromad, miyonxat, dunasr, namud va furovard kabi tarkibiy qismlari ijrochilikda bosqichma-bosqich rivojlanishni ta‘minlab, vokal texnikasining uzluksiz o‘shishini talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida ijrochining musiqiy tafakkuri va ijro mahoratini tizimli rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada musiqa ijrochiligida texnik mahoratni oshirishda qo‘llaniladigan metodlar, ularning nazariy asoslari hamda amaliy samaradorlik darajalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi, ularning ijrochilik sifatiga ta‘siri hamda pedagogik samaradorligi yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Nasri Uzzol” kabi maqom sho‘balarining nazariy asoslari Sharq musiqa ilmining klassik manbalarida shakllangan. Abu Nasr Forobiy musiqani ilmiy tizim sifatida o‘rganib, tovushlar nisbatlari, lad tuzilishi va ijrochilikdagi intonatsion aniqlikni asoslab bergan⁵⁸. Bu yondashuv keyinchalik maqom tizimining nazariy fundamentiga aylangan. Abu Ali ibn Sino musiqaning inson ruhiy holatiga ta‘sirini tibbiy va psixologik jihatdan tahlil qilib, kuy va ritm orqali emotsional muvozanatga erishish mumkinligini ta‘kidlaydi⁵⁹. Bu qarash “Nasri Uzzol” kabi dramatik rivojlanishga ega asarlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek maqom ijrochilik an‘analarida asarning ichki tuzilmasi — daromad, miyonxat, dunasr, namud va furovard — tizimli rivojlanish bosqichlari sifatida qaraladi. Ishoq Rajabov maqomlarning strukturaviy tahlilini berar ekan, har bir qismning badiiy va texnik vazifasini alohida ko‘rsatib o‘tadi⁶⁰. Xususan, dunasr va namud qismlari ijrochining vokal imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazuvchi eng muhim bosqichlar hisoblanadi.

Yunus Rajabiy Shashmaqomni notaga tushirish orqali maqom ijrochiligini ilmiy asosda o‘rganish va o‘qitish tizimini yaratdi⁶¹. Uning ishlari “Nasri Uzzol” kabi murakkab sho‘balarni amaliy ijroda saqlab qolish va keyingi avlodga yetkazishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy musiqashunoslikda “Nasri Uzzol” asari ijrochilik texnikasi, lad tizimi va melodik rivojlanish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ayniqsa, kvarta tushish (uzzol prinsipi) asosidagi intonatsion harakat ijrochidan yuqori darajadagi nafas boshqaruvi va diapazon nazoratini talab etadi⁶².

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Nasri Uzzol” asarining ijrochilik va nazariy asoslari Sharq klassik musiqashunosligidan tortib zamonaviy ijrochilik pedagogikasigacha uzluksiz rivojlanib kelgan.

⁵⁸ Al-Farobiy. *Kitob al-musiqa al-kabir*. – Qohira: Dar al-Kutub, 1967. – B. 45–52.

⁵⁹ Ibn Sino. *Kitob ash-Shifo (Musiq bo‘limi)*. – Tehron: Nashr-e Danesh, 1984. – B. 118–123.

⁶⁰ Rajabov I. *Maqom asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – B. 87–95.

⁶¹ Rajabiy Y. *Shashmaqom (notalar to‘plami)*. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1959. – B. 5–12.

⁶² Matyoqubov O. *O‘zbek maqom ijrochiligi*. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 133–140.





NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nuzzol- Nasr-so‘zining ma‘nosi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib g‘alaba yoki ko‘mak ma‘nosini anglatadi. Nasri Uzzol-bu Uzzol ashulasi, Uzzol esa kvarta tushish degan ma‘noni bildiradi.

Yuzingda may gulu yo gul ochilg‘on bo‘stondir bu,

Gulingda qatra xun bo‘stondagi suvdin nishondir

Mazkur bayt daromad ya‘ni kirish qismi hisoblanadi. Tahlili shundan iboratki, sening yuzing gullagan bog‘dek go‘zal. O‘sha gullarning qizilligi esa mening muhabbat yo‘lida to‘kkan qonimdan paydo bo‘lgandek ma‘noslarini ifodalaydi.

Ikkinchi hat miyonxat deb nomlanib, miyonxat asar rivojining 2-xati. Bunda daromad o‘rta pardalarda ijro etiladi. Daromadda boshlangan asosiy mavzuni kvanta-kvinta yuqori pardalarda rivoj toptirish miyonxatta ijro etiladi, ya‘ni miyonxat asosiy mavzuni bir oktava yuqoridan qaytarishga tayyorlab beradi. So‘ng mustahall asosiy mavzuni dunasrda aytilishiga tayyorlaydi⁶³. Ikkinchi baytda Navoiy ishq azobini ham go‘zallikka aylantirgani ifodalangan.

Nasri uzzolning uchinchi xati dunasr bo‘lib, dunasr ikki holatda ma‘lum vazifani bajaradi. Birinchisi, birinchi qismining bir oktava yuqorida ijro etilishida qo‘llaniladi. Ikkinchi holatida esa asarning bir oktava yuqorida rivojlanish qismiga ham aytiladi. Dunasr ashulaning muhim qismlaridan. U maqom ijrochisining ijro uslubi bilan chambarchas uyg‘unlashgan. Unda ayniqsa badihaviy unsurlar qo‘llaniladi. Shu bilan birga dunasr 1-avj bo‘lib kelishi ham mumkin. Ammo dunasrning eng muhim jihati u asarning avjlar tizimini boshlab beradi. Asosiy mavzuni avjlar tizimida ijro etishga tayyorlashda dunasr asarni dramaturgik rivojlovchi vazifani ham bajaradi⁶⁴.

Emas vasling tilab uchqan ko‘zum atrofida kirpik,

Kim ul daryoi qushlarga qamishdin oshiyondur bu.

Ko‘zim atrofidagi kipriklar seni sog‘inib uchayotgan qushlar emas. Ular ishq yoshlarim daryosi bo‘yidagi qamishdan qurilgan uyalar kabidir degan fikr berilgan.

Namund tojikcha “ko‘rinish”, “kelish” ma‘nosini anglatadi⁶⁵. Namundlar maqomlarning qaysi sho‘balaridan olingan bo‘lsa, shunday nomlanadi. Masalan Namundi uzzol, namundi navo, namundi ushshoq v.h.k. Namudi Ushshoq dunasr jumlasidan so‘ng ijro etiladi.

Ko‘nguldin chiqqan ohim aylar afzun xalq savdosin,

Ki shaydoliq diyoridin yetishgan korvondur bu.

Labindin xastadur ko‘nglum, dam ochma, ey Masih, o‘tkim,

Ilojin yuz seningdekning beganmas notavondur bu.

Mazkur baytda yorning husniga mahliyo bo‘lgan, hijronda qiynalmoqda, ko‘zidan qonli yosh to‘kmoqda, oh-u nolasi butun olamga ta’sir qilmoqda. Lekin u

⁶³ M.Karimova. Shashmaqom talqin qoidolari. Toshkent 2005. 6-bet

⁶⁴ M.Karimova. Shashmaqom talqin qoidolari. Toshkent 2005. 7-bet

⁶⁵ Yu.Rajabiy F.M.Karamatov Shashmaqom I-tom. Toshkent badiiy nashriyoti 1966-yil 9-b





bu darddan qutulishni istamaydi, ishq azobini ulug' ne'mat deb biladi. Shuning uchun Masihdek tabib ham uni davolay olmaydi demoqda.

Namundi uzzoldan so'ng, Namudi Muhayyari chorgoh ijro etiladi. Iroq maqomidan olingan. Buzruk, Rost, Dugoh, Iroq maqomida keng qo'llaniladi.

Quyundek dasht aro ko'rsang meni, ko'p qochmakim, har dam

Boshingga evrulur sargashtai bexonumondur bu.

Ko'ngulmayxona romi, xotirim xush may batidinkim,

Munga ruhul-amindur ul, anga dorul-amondur bu.

Mazkur baytda haqiqiy muhabbat insonni azoblaydi, sarson qiladi, lekin aynan shu ishq inson ruhini poklaydi va uni yuksaltiradi. Bu g'azalda ishqning go'zalligi va azobi uyg'un tasvirlangan, muhabbat oddiy tuyg'u emas, balki insonni ma'naviy kamolga yetkazuvchi kuch sifatida talqin qilingan.

Furovard "tushurim" degan ma'noni anglatadi. U maqom asarining o'ziga xos yakuniy (xulosaviy) qismi. Unda asar mavzusi asosiy nuqta (ton) ga olib kelib xotimali yakunlanadi⁶⁶. Muhayyari chorgoh ijro etilgandan so'ng furovard bilan yakunlanadi.

Dema, xijron tuni har dam yetar ul oyga faryodim,

Ul oy faryodingga yetmas, Navoiy, ne fig'ondur bu?

Bu baytda oshiq sevgisiga javob ololmayapti, hijron ichida yolg'iz qolgan, faryodi samarasizligini his qilmoqda. Tasavvufiy ma'noda, insonning Haqqa yetish yo'lidagi zorligi, o'zini ojiz his qilishi ham aks etadi.

XULOSA

"Nasri Uzzol" asarining musiqiy va badiiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu maqom sho'basi o'zining murakkab tuzilishi, lad tizimi va ifoda vositalari bilan ijrochidan yuqori darajadagi texnik mahorat talab etadi. Daromad, miyonxat, dunasr, namud va furovard kabi qismlar ijrochilik jarayonida vokal imkoniyatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirib, asarning dramatik va emotsional ta'sir kuchini oshiradi. Tahlil jarayonida an'anaviy maqom ijrochiligi bilan bog'liq badihaviylik, intonatsion aniqlik va nafas boshqaruvi kabi jihatlar ijrochining professional shakllanishida muhim o'rin tutishi aniqlandi. Ayniqsa, asarning poetik matni va musiqiy ifodasi uyg'unligi ijrochidan nafaqat texnik, balki badiiy tafakkur ham talab qiladi. Shuningdek, "Nasri Uzzol"ni o'rganish jarayonida qo'llaniladigan metodlar ijrochining musiqiy saviyasini oshirish, sahna madaniyatini shakllantirish va ijro sifati yaxshilanishiga xizmat qilishi isbotlandi. Umuman olganda, mazkur asar maqom ijrochiligi tizimida texnik mahoratni rivojlantirish uchun muhim amaliy maktab vazifasini bajaradi.

⁶⁶ M.Karimova. Shashmaqon talqin qoidalari. Toshkent 2005. 7-bet





FOYDALANILGAN ADABIYOLAR:

1. Forobiy, Abu Nasr. “Kitob al-musiqa al-kabir” (Buyuk musiqa kitobi). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1986. – 214–230-betlar.
2. Ibn Sino, Abu Ali. “Kitob ush-shifo: Musiqa bo‘limi”. – Tehron: Nashr-i Ilmiy, 1975. – 95–112-betlar.
3. Rajabov, I. R. “Maqomlar masalasiga doir”. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. – 45–88-betlar.
4. Rajabiy, Yunus. “Shashmaqom” (nota va izohlar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1978. – 10–76-betlar.
5. Matyoqubov, O. “O‘zbek maqom san’ati asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 120–165-betlar.
6. Nizomov, A. “Sufizm v kontekste muzykalnoy kultury narodov Tsentralnoy Azii”. – Toshkent: Fan, 2000. – 33–59-betlar.
7. Karomatov, F. M. “O‘zbek xalq musiqasi tarixi”. – Toshkent: Fan, 1972. – 88–140-betlar.
8. Nazarov, A. “Maqom ijrochiligi nazariyasi”. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 1995. – 56–101-betlar.
9. UNESCO. “Masterpieces of the Oral and Intangible Heritage of Humanity: Shashmaqom”. – Paris: UNESCO Publishing, 2008. – 5–18-betlar.
10. Qoshg‘ariy, Mahmud. “Devonu lug‘otit turk”. – Toshkent: Fan, 1960. – 302–350-betlar.

